MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI 9
Amirov Otabek Xudoyberdi o‘g‘li
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ 14
Маннапова Раъно Аброровна
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELI 22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS 29
Liu Qing
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI 36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA 41
Yorqin Xudoyiberdiev
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI 45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 53
Xojiyev Ma’murjon Muxsinjon o‘g‘li
HUDUDIY SPORT-SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 62
Misirxonov Habibxon Iskandar o‘g‘li
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH 71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO‘YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH 78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH 83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNI RAG‘BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH 88
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ORQALI TA’MINLASH 93
Jo‘raxonov Muzaffar Eskandarovich
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI 101
Temirov E.I.
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI TA’SIRINI BAHOLASH 109
Mutorov Ilhom Avazjon o‘g‘li
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунавар
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ 127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ 138
Ташмухамедова Карима Саматовна
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI 150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI 156
Safaraliyev Basir Norboyevich
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEXANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH 162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB OLISH 169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH 174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ 179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI 183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH 189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI 195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI 200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE 204
Dilbar Ramazonova
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchoy
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI 223
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 232
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi
SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 240
Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza
XORIJIY MAMLAKATLARDA UY-JOY NARXLARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH TAJRIBASI 246
Sadikova Dildora Abdulla qizi
TOMORQA XO‘JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI 252
U.U. Nurullayev
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WAREHOUSE OPERATIONS 257
Abdulazizova Shakhrizoda Azizbek kizi
IXTISOSLASHUV VA KONSENTRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA SUT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 262
Sherbekova Ariuxan Rashidovna
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARIGA TA’SIRI TAHLILI 266
Jumaniyazova Feruza Rajabovna
ОПТИМИЗАЦИЯ РЕЖИМОВ ВЫРАБОТКИ КИСЛОРОДА И СЖАТОГО ВОЗДУХА ДЛЯ СНИЖЕНИЯ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРНОВОЙ МЕДИ 271
Т.С. Камалов, Х.Т. Ташева, Д.А. Ишанова, У.И. Абляев
SOLIQ SIYOSATINING INVESTITSION FAOLLIKKA TA’SIRI 279
Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Zarif Oripovich Axrorov
SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISH VA JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) 284
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 291
Turopova Nigora Xolmurod qizi
VIRTUAL REALLIK SAHNALARIDA KO‘P ISHTIROKCHILI HOLISTIK HARAKATNI REAL VAQT REJIMIDA KUZATISH VA KO‘P AGENTLI SKELETNI RETARGETING QILISH 297
Abdusamatov Abdurasul Abduqahhor o‘g‘li
O‘ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA FINTEX VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGI 304
Karimova Nurjahon Olim qizi
MAHALLIY AMALIYOTDA MOLIYAVIY..... HISOBOTNI SOXTALASHTIRISHNING ENG KENG TARQALGAN SHAKLLARINI TAHLIL QILISH 311
Xusanov Shuxrat Burxanovich
TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O‘TKAZMALARI BILAN BOG‘LIQ MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH YO‘LLARI 318
Eshmamatov Davlat Nuriddinovich
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY TAHLILI 325
Buriyev Sherzod Ahadovich

TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA INVESTITSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING OMILLARI VA MEXANIZMLARI 329
Sarimsaqov Sherzod Xamidovich
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDA KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 336
Rasulov Baxtiyor Bahodirovich
MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYANING YANGI BOSQICHLARI 342
Abduraxmonov Shohruh, Xalmatjanov Farhod
DEVELOPMENT OF AN INTEGRATED ESG-BASED FRAMEWORK FOR ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 347
Hatidje Nasirova

ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDA KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Rasulov Baxtiyor Bahodirovich
«ELKE KRONES» MChJ XK bosh direktori
E-mail:bakhtiyor.rasulov.2025@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish konsepsiyasini takomillashtirishning nazariy-uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar, strategik boshqaruvning asosiy tamoyillari hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlash shartlari tahlil qilingan. Strategik rivojlanishni boshqarishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari asosida korxonalarning o'zgaruvchan iqtisodiy muhitga moslashuvchanligini oshirish, strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: strategik rivojlanish, strategik boshqaruv, korxona, boshqaruv konsepsiyasi, raqobatbardoshlik, innovatsiya, resurs salohiyati, raqamlashtirish, strategik qarorlar.

Аннотация. Исследованы теоретико-методические аспекты совершенствования концепции управления стратегическим развитием предприятий в современных экономических условиях. Проанализированы внешние и внутренние факторы, влияющие на деятельность предприятий, основные принципы стратегического управления, а также условия обеспечения их долгосрочной конкурентоспособности. Научно обоснована значимость применения инновационных подходов, эффективного использования имеющихся ресурсов и внедрения цифровых технологий в управлении стратегическим развитием. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения, направленные на повышение адаптивности предприятий к изменяющейся экономической среде, совершенствование механизмов стратегического управления и обеспечение их устойчивого развития.

Ключевые слова: стратегическое развитие, стратегическое управление, предприятие, концепция управления, конкурентоспособность, инновации, ресурсный потенциал, цифровизация, стратегические решения.

Abstract. The theoretical and methodological aspects of improving the concept of strategic development management of enterprises under modern economic conditions are examined. External and internal factors affecting enterprise activities, the fundamental principles of strategic management, and the conditions necessary to ensure long-term competitiveness are analyzed. The importance of applying innovative approaches, efficiently utilizing available resources, and implementing digital technologies in strategic development management is scientifically substantiated. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are developed to enhance enterprises' adaptability to a changing economic environment, improve strategic management mechanisms, and ensure sustainable development.

Keywords: strategic development, strategic management, enterprise, management concept, competitiveness, innovation, resource potential, digitalization, strategic decisions.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi, raqobat muhitining kuchayishi, texnologik o'zgarishlar va raqamli transformatsiya jarayonlari korxonalar faoliyatini strategik jihatdan boshqarishga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bunday sharoitda korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash mavjud resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, tashqi muhit o'zgarishlariga moslashish, innovatsion imkoniyatlarni shakllantirish va uzoq muddatli raqobat ustunliklarini ta'minlashni talab etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar korxonalarning strategik rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni shakllantirmoqda. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, investitsiyaviy va ishbilarmonlik faolligini oshirish korxonalar faoliyatini strategik jihatdan takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqsadlarga erishishda korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, investitsiya va innovatsion faollikni kuchaytirish hamda boshqaruv jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish konsepsiyasini zamonaviy iqtisodiy talablar asosida takomillashtirish, strategik maqsadlarni resurs va innovatsion salohiyat bilan uyg‘unlashtirish hamda boshqaruv qarorlarining natijadorligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishning mavjud yondashuvlarini tahlil qilish va ular asosida korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligi hamda barqarorligini ta’minlashga qaratilgan takomillashtirilgan konseptual yondashuvni shakllantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M. Porter strategik boshqaruvni korxonaning raqobat muhitida munosib mavqeni egallashi va barqaror raqobat ustunligini shakllantirish jarayoni sifatida asoslaydi. Uning yondashuvida korxona strategiyasini shakllantirishda tarmoqdagi raqobat kuchlari, bozor pozitsiyasi va qiymat yaratish jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, korxonaning strategik rivojlanishi raqobat muhitini muntazam tahlil qilish va raqobat ustunligini ta’minlovchi strategiyani tanlash bilan bog‘liq.[1]

D.J. Teece korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini dinamik qobiliyatlar konsepsiyasi orqali izohlaydi. Uning fikricha, o‘zgaruvchan iqtisodiy muhitda korxona nafaqat mavjud resurslarga ega bo‘lishi, balki imkoniyatlarni aniqlash, ulardan foydalanish va resurs hamda kompetensiyalarni qayta shakllantirish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Muallif ushbu qobiliyatlarni *sensing, seizing and reconfiguring* jarayonlari orqali tushuntiradi.[2] **R. van de Wetering, P. Mikalef va A. Pateli** zamonaviy sharoitda axborot texnologiyalari moslashuvchanligi va dinamik qobiliyatlarning strategik uyg‘unligi korxonaning raqobatbardosh natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini empirik jihatdan tadqiq etgan. Ularning tadqiqotida 322 ta xalqaro kompaniya ma’lumotlari asosida strategik uyg‘unlik va raqobatbardosh natijadorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Bu yondashuv raqamli transformatsiyani korxonaning strategik rivojlanish konsepsiyasining tarkibiy qismi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.[3] **R.A. Isayev** sanoat korxonalari strategik rivojlanishini boshqarishda sifat menejmenti va strategik boshqaruv tizimlarini integratsiyalashga alohida e’tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida korxonalarda integratsiyalashgan strategik boshqaruv tizimini shakllantirish, strategik axborot ta’minotini yaxshilash va tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.[4] **N. Akramova** korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishni korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim sharti sifatida ko‘radi. Muallif korporativ boshqaruvni diversifikatsiya jarayonlari, korporativ kodeks tamoyillari va strategik qarorlar qabul qilish mexanizmlari bilan bog‘laydi. Uning qarashlariga ko‘ra, korporativ boshqaruvning samarali institutsional mexanizmini shakllantirish korxonalarning strategik maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.[5] **K. A’zam** sanoat korxonalarining strategik rivojlanishini innovatsion-texnologik yangilanish bilan bog‘laydi. Muallif kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, malakali kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion faollikni kuchaytirish zarurligini asoslaydi. Demak, innovatsion salohiyat korxonaning uzoq muddatli strategik rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.[6]

Sh.I. Mustafaqulov tadqiqotlarida investitsion muhit va investitsion jozibadorlikni iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholaydi. Muallifning yondashuvi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari, investitsion muhit va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashga asoslangan. Shu nuqtayi nazardan, korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishda investitsion salohiyat va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi.[7]

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirish natijasida korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishning asosiy omillari sifatida raqobat muhiti, dinamik qobiliyatlar, raqamli texnologiyalar, korporativ boshqaruv, axborot ta’minoti, innovatsion salohiyat va investitsion imkoniyatlarni ajratish mumkin. M. Porter korxonaning raqobatbardosh strategik pozitsiyasiga, D.J. Teece dinamik moslashuvchanlikka, R. van de Wetering va boshqalar raqamli imkoniyatlar va innovatsion qobiliyatlarga, R.A. Isayev integratsiyalashgan strategik boshqaruvga, N. Akramova korporativ boshqaruvga, K. A’zam innovatsion rivojlanishga, Sh.I. Mustafaqulov esa investitsion salohiyatga asosiy e’tibor qaratgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishga oid ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, qiyosiy taqqoslash, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va iqtisodiy jihatdan baholash usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullari keng qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish jarayoni tashqi va ichki muhit omillarining yuqori darajada o‘zgaruvchanligi, raqobatning kuchayishi, texnologik yangilanishlarning tezlashishi hamda investitsion resurslarga bo‘lgan talabning ortishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, korxonaning strategik rivojlanishini faqat belgilangan rejalarni amalga oshirish jarayoni sifatida emas, balki o‘zgaruvchan iqtisodiy muhitga moslashish, mavjud resurs va imkoniyatlarni qayta shakllantirish hamda uzoq muddatli raqobat ustunligini ta’minlashga qaratilgan uzluksiz boshqaruv jarayoni sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Korxonalarning strategik rivojlanishida tashqi muhit omillari bilan bir qatorda, ichki salohiyatning holati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, bozordagi talab va taklif nisbati, raqobat darajasi, texnologik o‘zgarishlar, investitsion muhit va makroiqtisodiy tendensiyalar korxonaning tashqi strategik muhitini belgilasa, moliyaviy barqarorlik, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, innovatsion faollik, inson kapitali va boshqaruv sifati ichki strategik salohiyatni ifodalaydi. Shu asosda korxonalar strategik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks baholash zarur. Bunday yondashuv korxonaning mavjud holatini aniqlash bilan birga, uning kelgusi rivojlanish imkoniyatlarini ham prognoz qilish imkonini beradi.

1-jadval

Korxonalarning strategik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tizimi[1]

Omillar yo‘nalishi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Strategik ta’siri
Moliyaviy	Rentabellik, likvidlik, daromad, investitsiya hajmi	Moliyaviy barqarorlik va investitsion imkoniyatni belgilaydi
Bozor-raqobat	Bozor ulushi, talab dinamikasi, raqobat darajasi	Korxonaning strategik pozitsiyasini belgilaydi
Innovatsion	Yangi mahsulot, texnologiya va innovatsion loyihalar	Raqobat ustunligini shakllantiradi
Texnologik	Avtomatlashtirish, raqamlashtirish, texnologik yangilanish	Ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligini oshiradi
Investitsion	Investitsiyalar, investitsion loyihalar, kapital qo‘yilmalar	Uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlaydi
Inson kapitali	Malaka, mehnat unumdorligi, kadrlar salohiyati	Innovatsion va boshqaruv imkoniyatlarini kuchaytiradi

Jadvaldan ko‘rinadiki, strategik rivojlanish ko‘p omilli xususiyatga ega bo‘lib, mazkur omillarning har birini o‘zaro bog‘liqlikda baholash korxonaning haqiqiy strategik salohiyatini to‘liqroq ifodalash imkonini beradi. Masalan, moliyaviy natijalarning yuqori bo‘lishi korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bunda korxonaning texnologik rivojlanishi, innovatsion faolligi va inson kapitali salohiyatining yetarli darajada shakllanishi moliyaviy ustunliklarning uzoq muddat davomida saqlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli korxonaning strategik rivojlanishini baholashda moliyaviy natijalar bilan bir qatorda, innovatsion faollik, texnologik yangilanish, investitsion faollik va inson kapitali ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur. Bu esa strategik boshqaruvda integratsiyalashgan yondashuvni shakllantirishni taqozo etadi.

Tadqiqotda korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish jarayonining an’anaviy va zamonaviy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. An’anaviy yondashuv asosan yillik rejalashtirish, moliyaviy natijalarni baholash va belgilangan rejalarning bajarilishini nazorat qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvda strategik moslashuvchanlik, raqamli texnologiyalardan foydalanish, innovatsion salohiyatni rivojlantirish va tezkor qaror qabul qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

1 Muallif ishlanmasi

2-jadval
Korxonalar strategik boshqaruvining an’anaviy va zamonaviy yondashuvlari[2]

Mezon	An’anaviy yondashuv	Zamonaviy yondashuv
Asosiy maqsad	Reja bajarilishi	Barqaror strategik rivojlanish
Rejalashtirish	Qat’iy va davriy	Moslashuvchan va uzluksiz
Qaror qabul qilish	Asosan rahbariyat markazida	Ma’lumot va tahlilga asoslangan
Texnologiya	Yordamchi vosita	Strategik resurs
Innovatsiya	Qo‘shimcha yo‘nalish	Strategik rivojlanish omili
Nazorat	Natija bo‘yicha	KPI va doimiy monitoring asosida

Zamonaviy yondashuvning muhim jihati shundaki, strategik boshqaruv jarayonida korxona rahbariyati mavjud natijalarni baholash bilan birga, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf va imkoniyatlarni oldindan aniqlashi lozim. Bunda strategik qarorlarni qabul qilish jarayoni analitik ma’lumotlar, prognoz natijalari va asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan ta’minlanishi talab etiladi.

Tahlillar asosida strategik rivojlanishni boshqarish jarayonini quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyati strategik boshqaruvni bir martalik qaror emas, balki uzluksiz takrorlanuvchi boshqaruv sikli sifatida shakllantirishdan iborat. Bunda monitoring natijalari strategik maqsadlar va chora-tadbirlarni qayta ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishda mazkur jarayonni raqamlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Korxonaning moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, kadrlar va innovatsion faoliyatiga oid ma’lumotlarni yagona axborot tizimida jamlash strategik qarorlarning tezkorligi va asoslanganligini oshiradi. Shuningdek, raqamli analitika vositalari orqali asosiy ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida monitoring qilish va ehtimoliy strategik xavflarni oldindan aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari asosida korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishning takomillashtirilgan konseptual yondashuvi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvda strategik rivojlanishning maqsadi korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashdan iborat bo‘lib, unga erishishda resurslar, investitsiyalar, innovatsiyalar, texnologiyalar va inson kapitali o‘zaro integratsiyalashadi.

3-jadval
Korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishning takomillashtirilgan konseptual modeli[3]

Tarkibiy element	Boshqaruv mexanizmi	Kutiladigan natija
Strategik tahlil	SWOT, PEST va raqobat tahlili	Imkoniyat va xavflarni aniqlash
Resurs salohiyati	Resurslarni optimal taqsimlash	Resurslar samaradorligini oshirish
Innovatsion rivojlanish	Yangi texnologiya va mahsulotlarni joriy etish	Innovatsion raqobat ustunligi
Investitsion rivojlanish	Investitsion loyihalarni tanlash va baholash	Uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish
Raqamli boshqaruv	Ma’lumotlar tahlili va KPI monitoringi	Qaror qabul qilish tezkorligi
Strategik monitoring	Natijalarni baholash va korrektirovka qilish	Strategiyaning moslashuvchanligi


Taklif etilayotgan modelning asosiy afzalligi shundaki, unda korxonaning strategik rivojlanishi alohida funksional yo‘nalishlar emas, balki o‘zaro bog‘liq boshqaruv elementlarining yagona tizimi sifatida qaraladi. Xususan, investitsion qarorlar innovatsion maqsadlar bilan, innovatsion loyihalar resurs salohiyati bilan, raqamli texnologiyalar esa strategik qarorlar qabul qilish jarayoni bilan uzviy bog‘lanadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv korxonaning tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatini oshiradi.

Shu bilan birga, strategik resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga qayta taqsimlash, istiqbolli investitsion loyihalarni tanlash, innovatsion faollikni kuchaytirish va boshqaruv qarorlarining natijadorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholashda integral ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Bunda moliyaviy barqarorlik, innovatsion faollik, investitsion faollik, mehnat unumdorligi, raqamlashtirish darajasi va raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini birgalikda baholash korxonaning strategik holati haqida kompleks xulosa chiqarish imkonini beradi.

Mazkur yondashuvlarni integratsiyalash asosida korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishni “raqobat muhiti → resurs va investitsion salohiyat → innovatsion-texnologik rivojlanish → raqamli transformatsiya


2 Muallif ishlanmasi
3 Muallif ishlanmasi

→ strategik qaror → raqobatbardosh natija” zanjiri asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishning integratsiyalashgan modeli[4]

Mazkur tadqiqotda korxonalarning strategik rivojlanishini **raqobatbardoshlik + resurs salohiyati + innovatsion-texnologik rivojlanish + investitsion imkoniyatlar + dinamik moslashuvchanlik**ning o‘zaro integratsiyasi asosida boshqarish konsepsiyasini shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.



2-rasm. Korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish modellari[5]

4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
5 Muallif ishlanmasi.

Tadqiqot natijalari korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishda “rejalashtirish – amalga oshirish – nazorat” an’anaviy modeli o‘rniga “tahlil – prognozlash – strategik qaror – amalga oshirish – monitoring – moslashtirish” tamoyiliga asoslangan integratsiyalashgan boshqaruv modeliga o‘tish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv korxonalarning tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashuvchanligini oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, innovatsion va investitsion faollikni kuchaytirish hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish an’anaviy rejalashtirish yondashuvidan integratsiyalashgan va moslashuvchan boshqaruv modeliga o‘tishni talab etishini ko‘rsatdi. Korxonaning barqaror rivojlanishi nafaqat moliyaviy natijalar, balki innovatsion, investitsion, texnologik va inson kapitali salohiyatining o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanishi aniqlandi. Shu asosda strategik boshqaruv jarayonini uzluksiz tahlil, prognozlash, qaror qabul qilish va monitoring mexanizmlari bilan ta’minlash muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, korxonalarning strategik rivojlanishini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Korxonalarda strategik rivojlanishni boshqarishning integratsiyalashgan konsepsiyasini joriy etish, bunda moliyaviy, innovatsion, investitsion, texnologik va kadrlar salohiyatini yagona boshqaruv tizimida muvofiqlashtirish.

Strategik qarorlarni qabul qilishda raqamli tahlil va KPI monitoring tizimlaridan keng foydalanish hamda korxonaning asosiy faoliyat ko‘rsatkichlarini doimiy monitoring qilish.

Korxonalarning tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashuvchanligini oshirish maqsadida strategik rejalarni davriy ravishda qayta ko‘rib chiqish va zarur hollarda takomillashtirish mexanizmini joriy etish.

Innovatsion va texnologik yangilanishni strategik rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash, yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda joriy etishni rag‘batlantirish.

Korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlash uchun investitsion loyihalarni tanlash va baholashning samarali mexanizmlarini shakllantirish, investitsiyalarni yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan yo‘nalishlarga yo‘naltirish.

Ushbu yondashuv korxonalarning strategik maqsadlarini real resurs va imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish, boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshirish hamda o‘zgaruvchan iqtisodiy muhitda barqaror va raqobatbardosh rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Porter M. E. *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. – New York: Free Press, 1980.
2. Teece D. J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // *Strategic Management Journal*. – 1997. – Vol. 18, No. 7. – P. 509–533.
3. van de Wetering R., Mikalef P., Pateli A. Strategic Alignment of IT Flexibility and Dynamic Capabilities in Achieving Competitive Performance: The Mediating Role of Innovation Capability // *International Journal of Information Management*. – 2018. – Vol. 43. – P. 127–141. – DOI: 10.1016/j.ijinfomgt.2018.07.009.
4. Isayev R. A. Sanoat korxonalarining sifat menejmenti tizimi va strategik boshqarish integratsiyalashgan tizimining axborot ta’minotini yaxshilash // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2021. – № 6.
5. Akramova N. O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini tatbiq etish va rivojlantirish // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2022. – T. 10, № 3. – B. 83–94. – DOI: 10.55439/EIT/vol10_iss3/a10.
6. A’zam K. Kimyo sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish yo‘llari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2022. – T. 10, № 5. – B. 242–247. – DOI: 10.55439/EIT/vol10_iss5/a26.
7. Mustafaqulov Sh. I. *Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100